



27-iyun – Matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlari kuni

RAQAMLAR SO'ZLAGANDA...

Ayni kunda mam-
lakatimizda 686 ta
gazeta, 300 ga yaqin
jurnal, 65 ta televide-
niye kanali, 31 ta radio,
4 ta axborot agentligi,
359 ta veb-sayt va 16
ta axborot-byulleteni,
jami 1461 ta ommaviy
axborot vositasi faoli-
yat yuritmoqda.



Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqqa boshlagan O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi ISSN – 2010-6092

Go'zal va betakrorimsan, muqaddas Vatanim, jonim senga fido, O'zbekistonim!



Sirdaryo
viloyati, Guliston
shahridagi
12-umumta'lim
maktabi
o'quvchilari,
opa-uka Oynisa
va Umidjon
yozgi ta'tilni
mazmunli
o'tkazishmoqda.

OROMGOHDA MAROQLI HORDIQ

(4-bet)



Bizga maktub yo'llabsiz...

IRODA – TANLOV G'OLIBI!

Yaqinda poytaxtimizda joylashgan Respublika «Barkamol avlod» bolalar ijodiyoti markazida «Jaholatga qarshi ma'rifat» ko'rik-tanlovining mamlakat bosqichi bo'lib o'tdi.

Andijon viloyatining Baliqchi tumanidagi 12-DIMI 7-«B» sinf o'quvchisi Iroda Orifjonova «Jaholat urug'i hech qachon unmas» she'ri bilan qatnashib, g'oliblikni qo'lga kiritdi va 1-darajali diplom bilan taqdirlandi.

Iroda bolaligidan badiiy adabiyotga mehr qo'ydi. 2-sinfda o'qiyotgan paytda ilk she'rini yozdi. O'tgan yildan beri tuman gazetasi qoshidagi «Yosh qalamkash» hamda viloyat Yozuvchilar uyushmasi qoshidagi «Bobur izdoshlari» nomli to'garak a'zosi. Kitob mutolaasi uning jon-u dili. Iroda O'tkir Hoshimov, Abdulla Qodiriy, Tohir Malik, Abdulla Qahhor, Erkin Vohidov, Abdulla Oripovlarning asarlarini sevib mutolaa qiladi.

Ustozlari Barnoxon Haydarova va Bobur Abdullayev shogirdining yutuqlaridan mamnun.

Xurshida SULAYMONOVA

Ogohlikdan bunyod yorqin kelajak, Hushyor bo'lsak, go'zal har bir onimiz. Turaylik tun-u kun saflarda sergak, Vatanga baxshida bo'lsin jonimiz.

Do'stim, ergashmaylik johilga, Bo'lmaylik buzg'unchi g'oyalari quli. Qo'limiz uzatsak doim oqilga, Bizlarni chorlaydi saodat yo'li.

BAYRAMINGIZ QUTLUG' BO'LSIN!

Salom «Tong yulduzi» gazetasining jonkuyar ijodkorlari! Barchangizni 27-iyun – Matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlari kuni bilan samimiy muborakbod etaman.

Sevimli nashrimiz sahifalarining sermazmun va qiziqarli chop etilishida sizning xizmatlaringiz katta. Ayniqsa, men kabi havaskor qalamkashlarning mashqlarini gazetada yoritishingiz bizni behad quvontiradi.

Men maktabimizdagi «Yosh qalamkashlar» to'garagi a'zosiman. Rahbarimiz Hakim aka Kamolovning aytishicha, mashg'ulotlarimiz ta'tilda yanada ko'payar ekan.

Men to'garakning barcha a'zolari nomidan Sizlarga ijodiy parvozlar, shaxsiy hayotingizda baxt-omad tilab qolaman.

Guljahon BAXTIYOROVA,
Buxoro viloyati, Shofirkon tumanidagi
48-umumta'lim maktabi o'quvchisi

FAXRLANSAK ARZIYDI...


«Kamolot» YOIH MK tomonidan tashkil etilgan «Kamalak» bolalar tashkiloti sardorlarining an'anaviy XV respublika anjumani Qashqadaryo viloyatining Shahrisabz tumanidagi «Lochin» oromgohida bo'lib o'tdi.

Unda tumanimiz sardorlari Mohidil G'afurova va Pokiza Xolbo'tayeva ham faol ishtirok etishdi. «Zukko kitobxon» ko'rik-tanlovida viloyatimiz vakillari faxrli 3-o'ringa munosib topildilar. 1-o'rinni Navoiy viloyati, 2-o'rinni farg'onaliklar qo'lga kiritishdi. Toshkent viloyati sardorlari «Eng ahil jamoa» nominatsiyasiga munosib ko'riildi.

G'oliblar diplom va esdalik sovg'alari bilan taqdirlandi.
Marhobo G'AFUROVA,
Toshkent viloyati, Bekobod tumani
«Kamolot» YOIH faoli

BUGUN OLAM FARZANDLARIMIZ KAFTIDA

Bugun farzandlarimizning qiziqmagan sohasi yo'q. Bor haqiqatni aytganda, olam ularning kaftida. Zamonaviy texnika va texnologiyalarni bizdan ko'ra avvalroq o'zlashtirib olmoqda.



O'ktam **MIRZAYOROV,**
O'zbekiston Jurnalistlari ijodiy uyushmasi raisi o'rinbosari,
«Hurriyat» gazetasi Bosh muharriri.
Ustozning ilk maqolasi «Tong yulduzi»da chop etilgan.

Qo'l telefoni, internet va boshqa qurilmalardan nafaqat foydalanish, balki ulardagi murakkab dasturlarni anglashda ba'zan ularga murojaat qilishga to'g'ri keladi. Demak, davlatimiz rahbari orzu qilganlaridek, farzandlarimiz bizdan ko'ra aqlli, uquvliroq bo'lib boryapti. Vaholanki, har bir ota-ona o'z farzandini shunday barkamol, bilimli, chaqqon va epchil bo'lishini orzu qiladi. Mamlakatimiz mustaqillikka erishib, yaqin o'tmishda birinchi sinfga borib-bormay paxta dalasida kuni o'tadigan bolakaylar bugun jahon chempioni bo'layotgani, fanlarning chinakam bilimdonlari ekanini olamga doston etayotgani bor gap-ku. Shunday farzandlari bor ekan, demak, xalqimiz chinakamiga baxtli.

Men jurnalistman. Bu kasb insondan nihoyatda qadri va jonfidollikni talab qiladi. Faoliyatim davomida ko'zlari yonib, «Men jurnalist bo'lishni orzu qilaman», degan bolalarni ko'rganimda, ularga bor bilimimni, tajribamni o'rgatgim keladi. Ammo, ochig'ini aytganda, bu kasbga farzandlarimiz ertaroq, sohaning past-u balandini tushunib kirib kelayotgani yana bir yutu-

g'imizdir. Bugun – Matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlari kunini tantanali nishonlaymiz. Shu kunlarda qalblarida jurnalist bo'lishni, el-u yurtimizga halol va haq so'zni aytib, ularni yangi taraqqiyotlar sari chorlashni orzu qilgan farzandlarim, xususan, «Tong yulduzi» gazetasini qo'ldan qo'ymay o'qib kelayotgan, bilishga, olamni tezroq anglashga chanqoq o'quvchilariga katta muvaffaqiyatlar tilayman. Ularning olamdagi eng sara, ezgu so'zlardan qalblarga tinchlik sururini olib kirishlarini istayman. Omad hamisha yor, mamlakatimiz tinchligi abadiy bo'lsin! Yosh jurnalistlarimiz tinchlikka xizmat qilib charchamasinlar!

BOLALAR UCHUN YANGI VEB-SAYT

Bugun hayotimizni texnika vositalarisiz sira tasavvur etib bo'lmaydi. Ayniqsa, Siz aziz o'quvchilarning zamonaviy bilimlarni puxta egallashingizda kompyuter va internetning tutgan o'rni beqiyos.

Yaqinda yurtimizda bolalarga mo'ljallangan veb-saytlar soni yana bittaga ko'paydi. 27-iyun – Matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlari kuni arafasida O'zbekiston Respublikasi hukumat portali doirasida «Hukumat bolalar nigohida» veb-sayti (www.kids.gov.uz) ishga tushirildi.



Ushbu veb-sayt «Sog'lom ona va bola yili» Davlat dasturi doirasida tashkil etilib, unda o'quvchilar ona Vatanimiz haqidagi qiziqarli ma'lumotlar bilan yaqindan tanishish, siyosiy va huquqiy bilimlarini mustahkamlash imkoniga ega. Sayt 6-12 yoshli bolalar uchun mo'ljallangan bo'lib, unda O'zbekiston davlat hokimiyati tizimi to'g'risidagi barcha ma'lumotlar sodda matnlar va rasmlar yordamida tasvirlab berilgan.

– Saytning dizayni menda katta taassurot qoldirdi, – deydi poytaxtimizning Shayxontohur tumanidagi 169-umumta'lim maktabi o'quvchisi Sumbula Melimurodova. – U orqali O'zbekiston Respublikasi Davlat tuzilishi, ramzlari haqidagi qiziqarli ma'lumotlarga ega bo'ldim. Turli interaktiv o'yinlar esa aqlimni charxlashga, siyosiy bilimimni mustahkamlashga xizmat qildi.

Zohida SHAROBIDDIN qizi

ULAR «TONG YULDUZI»DA ISHLAGAN

Inson borki, e'tibordan ruhlanadi, e'zozdan qaddi yuksaladi. Turli yillarda tahririyatimizda mehnat qilgan ustozlarimizni kasb bayramlari bilan muborakbod etish asnosida ularga bo'lgan hurmatimizni, ehtiromimizni bayon etdik. Fursatdan foydalanib, ustoz jurnalistlarimiz «Tong yulduzi»ning bugungi jamoasiga, ko'p ming sonli o'quvchilariga atalgan quyidagi qalb so'zlarini izhor etishdi. Ustozlarning har bir so'zi biz uchun aziz va qadrli. O'ylaymizki, ularning o'y-fikrlari Siz aziz o'quvchilarni ham befarq qoldirmaydi.



Bolalik – odamzod umrining qorkapalaklar singari tiniq va beg'ubor, tog' jilg'alari kabi sho'x va o'ynoqi, rayhon bo'ylaridek samimiy va serifor his-tuyg'ularga boy davri ekan.

BAXT, FIDOVILIK HAMROHINGIZ BO'LSIN!

Abdusaid KO'CHIMOV,
O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan jurnalist, yozuvchi

Bo'ying o'sib, suyaging qotib, oq-qorani tanib, qora sochlaring oqarib boravergani sayin bahor osmonida yal-yal tovlanib turgan kamalakday o'ziga maftun qilib boraverar ekan, bu sirli dunyo. Bolalikda ko'rganlaring, o'rganganlaring, bilib olganlaring esa umr bo'yi yodingdan chiqmas; maqsad yo'lidagi intilishlaringda, orzu-havaslariga yetishingda burgut qanotlari kabi kuch-quvvat beraverar ekan. Shuning uchun ham mehribon muallimlar: bolalik g'animat – selday kelib, yelday o'tadi, yaxshi o'qimasanglar, o'rganmasanglar, keyin

Havasimiz shundaki, O'zbekistonimiz mustaqillikka erishgan ilk kunlardanoq yoshlar tarbiyasi, ularga g'amxo'rlik davlatimiz uchun eng asosiy yumushga aylandi. Muhtaram Prezidentimiz rahnamoligida ta'lim-tarbiya, o'qish-o'qitishning yangi tizimi yaratildi. O'zbekistonda joriy etilgan ta'lim tizimi endi jahondagi juda ko'p mamlakatlar uchun ham dasturulamal bo'lib xizmat qilayotgani, o'rganilayotgani, hayotga tatbiq etilayotgani, ayniqsa, quvonarlidir.

bir umr afsuslanib yurasizlar, deb takrorlashdan charchamas ekanlar. Ustozlar o'g'itiga quloq solganlar balandlarga parvoz qilib, ko'zlagan manzillarni ishg'ol qilar, quloq solmaganlar esa beshiktartavarday boshlarini sarak-sarak qilib yuraverar ekanlar ora-yo'lda sarson-u hayron bo'lishib.

Gapni olisroqdan boshlaganimning sababi, kimlargadir aql o'rgatish emas. Odam bolasi bu yorug' dunyoga kelib, aql tishi nish ura boshlagan damlaridanoq vaqtni qadrlashi, uning har lahzasini behuda ketkazmaslik choralarini ko'rish kerak ekan, demoqchiman, xolos.

Yaqinda o'zim tug'ilib o'sgan Urgut tumanidagi maktablarning birida bo'lib o'tgan uchrashuvda bolalar savol berishdi: «Siz o'qigan payt bilan hozirgi kunlarimiz orasidagi farq nimada?», deb. Bitta armonim bor, dedim yarim hazil bilan, bu dunyoga ellik yil oldinroq kelgan ekanman. Ellik yil keyin tug'ilganimda, bugun siz kabi mana shunday havas qilsa qilgulik maktablarda o'qiyotgan, muhtasham orzularga ko'milib yashayotgan bo'lar edim.

Yarim hazil, deyaqman-u, aslida, yuragimdan chiqqan chin so'zim, chin armonim, chin havasim edi bu.

Tunov kun Surxondaryoning Afg'oniston bilan chegaradosh qishloqlaridan birida istiqomat qiluvchi do'stim bilan gurunglashib qoldik. «Biz, O'zbekiston tomonga har qaraganda, sizlarda bo'layotgan to'y-tomoshalarni, katta-katta qurilishlarni ko'rib, yig'lab o'tiramiz», dermish afg'on birodarlarimiz. Bizlar bo'lsak, to'y-u tantanalarda yoqda tursin, yuragimizni hovuchlab kun kechiramiz, kechqurun yotar mahali Yaratganga tonggacha uyimiz tinch bo'lsin, ertalab bola-chaqamizni sog'-salomat ko'raylik, deya iltijo qilamiz, bolalarimizni maktabga yuborish u yoqda tursin, uydin ko'chaga

chiqarishga qo'rqamiz, dermish.

Ha, yer yuzida tinchlikka, osuda turmushga zor bo'lgan millionlab insonlar bor. Notinchliklar, ur-yiqitlar oqibatida o'z uyi, o'z yurtidan mosuvo bo'lib, yurtma-yurt osoyish topolmay yurgan baxti qoralar qancha?! Teleekranlarda ana shundaylarni ko'rganda, ularga achinasan, yuraging eziladi. O'zing yashab turgan go'zal va baxtli hayotga ming-ming marotalab shukronalar aytginc keladi.

Siz-u biz bebaho baxtini, tuprog'ining har zarrasini ko'zga to'tiyo qilgulik yurt fuqarolarimiz. Tinchlik atalmish ne'mat yurtimizga osonlik bilan kelmaganini, bu boylikni asrab-avaylash barchamizning muqaddas burchimiz ekanini ham yaxshi tushunamiz. Ona Vatanga, el-yurtga fidoyilik esa baxt-u saodatning abadiyligini ta'minlaydi. Shuning uchun ham bor ovoq bilan, aziz uka-singillarim, baxt va fidoyilik hamisha sizga yor bo'lsin, degim keladi.



Kechagidek yodimda, har hafta pochtagi anaki uyma-uy tarqatadigan «Tong yulduzi» gazetasini intiqlik bilan kutardik. Uning har bir sonini talashib-tortishib o'qirdik, she'rlarini, topishmoqlarini yod olardik. Qalbimizdagi so'zga, adabiyotga bo'lgan habiblik bolalar nashrlari orqali uyg'ongan bo'lsa, ne tong?!



Feruza JALILOVA,
«Shuhrat» medali sohibasi

Bu gazetani hozir ham sevib o'qiyman. Uning rang-barang sahifalariga ko'z yurgurtsam, bolalikning beg'ubor olamiga qaytgandek bo'laman. Sodda, ravon til-da yozilgan qiziqarli maqolalarni, ixcham xabarlarini o'qib, ma'lum muddat shu gazeta tahririyatida ishlagan taniqli adibimiz Safar Barnoyevning: «Tong yulduzi» – qisqa va lo'nda yozish maktabi. Bor fikringizni qisqa satrlarga jamlang. Uzun, katta maqolalarni o'qishga bolalarining sabri yetmaydi», degan o'gitlarini eslayman. Gazeta tahririyatining hozirgi katta va ahil jamoasi ham ana shu an'anani davom ettirib kelyapti. Kichik-kichik hajmli maqolalar fikrga, xabarlar ma'lumotga boy. Vaholanki, insonlarning ongi, tafakkuri, hayotga bo'lgan munosabatlari shiddat bilan o'zgarib borayotgan tezkor zamonamizda o'quvchini biror fikr, mulohaza, yangilik bilan hayratga solish

Bu sizning minbaringiz

juda mushkul ish. Ana shu murakkab vazifani uddalab kelayotgan «Tong yulduzi»ni suratli, sifatli, o'qishli, qiziqarli tarzda chop etish uchun sidqidiidan mehnat qilayotgan jurnalistlarimizni, shuningdek, ularga havas qilib qog'oz qoralayotgan yosh muxbirlarni ham bugungi bayram bilan muborakbod etaman. Jurnalistikaga havasmand yosh qalamkashlarga qarata: «Jurnalistlik – kasbga emas, qalb da'vati. U bilimdonlik, hayotsevarlik, jasurlikdir. Shunday ekan, yoshlik damlarini g'animat biling, puxta bilim oling. Oldingizga aniq maqsad qo'yib, unga erishish uchun intiling. Zero, jurnalistning nafaqat qalami, balki zehni va tafakkuri ham o'tkir, dunyoqarashi keng bo'lishi lozim. Til o'rganing. Yurtboshimiz orzulaganlaridek, xalqaro maydonlarga chiqing. Shitob bilan ilgariylab borayotgan hayotimizdagi o'zgarishlar, yangilanishlar ziyarak nigohingizdan chetda qolmasin. «Tong yulduzi»ga yozing. U – Sizning minbaringiz!» degim keladi.

5 YOSHLI QIZALOQ SERTIFIKAT BILAN TAQDIRLANDI

Yaqinda Surxondaryo viloyat «Barkamol avlod» bolalar ijodiyot markazida to'garak a'zolarining hisobot konserti bo'lib o'tdi.

Ustoz Zamira Niyozova rahbarligidagi folklor raqs to'garagi a'zolarining chiqishi kechaga o'zgacha fayz kiritdi. Ayniqsa, hali olti yoshga to'lmagan jajji raqqosa Muslima Qurbonova o'zining «Kapalak», «Jiblajibon» raqsi bilan yig'ilganlarni xushnud etdi.



Tadbir davomida nafis harakatlari bilan barchaning e'tiborini qozongan Muslima bilan yaqindan tanishishni istadik. Qizaloq raqs to'garagidan tashqari viloyat gimnastikaga ixtisoslashtirilgan bolalar va o'smirlar sport maktabida Marhabo Turdiyeva murabbiyligida badiiy gimnastika sirlarini o'rganayotgan ekan. Suhbat chog'ida u Abdulla Oripovning «O'zbekiston» she'rini yoddan aytib berdi. Ingliz tilida boshlang'ich ma'lumotga ega qizaloq karra jadvalini ham mukammal o'zlashtirganini bilib oldik.

Bilganlari haqida to'lib-toshib so'zlayotgan Muslima uning sertifikat bilan taqdirlangani e'lon qilganda, bizni ham unutib, sahnaga chopib ketdi.

Zarnigor MUSAYEVA

Yoz — qunnamoqqa soz! Bu so'zlar ta'tilga chiqqan bolajonlarning shioriga aylanib ulgurgan. O'quv yili yakunlanib, yozgi ta'tilni maroqli o'tkazish niyatida kimdir qishloqdagi bobo-yu buvijonisiga oshiqadi. Yana kimdir xorijiy til va hunar o'rganish niyatida «Barkamol avlod» markazi qoshida tashkillashtirilgan to'garaklarga oshno. Aksari o'quvchilarimiz tog' yonbag'rida joylashgan oromgohlarda mazza qilib hordiq chiqarishmoqda.

OROMGOHDA MAROQLI HORDIQ

Farg'ona viloyatining Furqat tumanidagi «Yoshlik» bolalar oromgohida uch mavsumda jami 300 dan ziyod bolajonlar dam olishadi. 7 yoshdan 14 yoshgacha o'quvchilarni qamrab olgan «Yulduzlar», «Nurli kelajak», «Zukkolar» guruhlar tarbiyalanuvchilari uchun belgilangan kun tartibi turli tadbirlar-u bir-biridan ajoyib sport musobaqalari bilan to'la. Bosh yetakchi Sevara Mirzaahmedova tashkilotchiligida «Vatanning mard o'g'lonlarimiz», «Oromgoh malikasi», «She'rxonlik kechasi», «Zulfiyaxonim izdoshlari» kabi tanlovlar uyushtirilib, bolajonlarimiz bor mahoratlarini namoyish etishadi. She'r o'qish bo'yicha tumandagi 2-umumta'lim maktabi o'quvchisi Ozodbek Mo'yidinovga yetadigani topilmadi. 32-umumta'lim maktabidan

BO'SH VAQTIMIZ O'TAR SHOD, SEN-LA «BARKAMOL AVLOD»!

Yozgi ta'tilni hamma ham maroqli va esda qolarli tarzda o'tkazishni istaydi. Bu borada Namangan viloyati o'quvchilari ham boshqa tengdoshlaridan ortda qolmagan holda ta'tilda ham dam olib, ham hunar o'rganishni oldilariga maqsad qilib qo'ygan.

Namangan shahar «Barkamol avlod» bolalar ijodiyoti markazi rahbar o'rinbosari Shoira Berdimurodovaning aytishicha, har yilgidek «Yoz — 2016» mavsumida jami 25 ta to'garakka 580 nafar o'quvchi-yoshlar jalb etilibdi.

— Markazda mashg'ulotlar bilan bir qatorda o'quvchi-yoshlar yozgi ta'til davrida bo'sh vaqtlarini qiziqarli va sermazzun o'tka-

da Respublika ijodiy ishlar tanlovining shahar bosqichi bo'lib o'tdi. Tanlovda faxrli 1-o'rinni egallagan 71-umumta'lim maktabi o'quvchisi, «Tasviriy san'at» to'garagi a'zosi Muxtasar Turdaliyeva viloyat bosqichida ishtirok etish uchun yo'llanmani qo'lga kiritdi.

«Kitob bilim bulog'i — o'quvchining o'rtog'i» mavzusidagi davra suhbatida esa bolalarning kitobga bo'lgan mehrni kuchaytirish, inson hayotida kitobning o'rni beqiyos ekanligini anglatish haqida so'z ketdi. Tadbirda o'quvchilar o'zlari o'qigan kitoblarning mazmun-mohiyati haqida tengdoshlariga so'zlab berdilar.

Bugun texnika va texnologiyalarga, yangi yaratilayotgan modellarga qiziqmaydigan kishi topilmasa kerak. Umumta'lim maktablari o'quvchilari va markaz to'garak a'zolari o'rtasida «Bolalar texnik ijodiyoti» festivalining shahar bosqichi tashkil etildi. O'quvchilar o'rtasida fan va texnikani rivojlantirishga qaratilgan ushbu festivalda 28 nafar iqtidorli o'quvchilar 7 ta yo'nalis bo'yicha belashdilar.

Shoira opa ta'kidlaganlaridek, bugungi kun o'quvchilari juda talabchan. Ularning bu ehtiyojlarini qondirish ustoz va murabbiylardan ham katta mahorat va izlanishni talab qiladi. Markaz o'qituvchilari bu borada katta tajribaga egaliklari ayni muddao.

Biz Namangan shahar «Barkamol avlod» bolalar ijodiyoti markazi o'qituvchilariga ham, o'quvchilariga ham kelgusidagi izlanishlari samarali bo'lishiga, yangi g'oyalar sari olg'a intilishlariga tilakdoshmiz.

Ozoda TURSUNBOYEVA



Dilafroz Jalolova esa «Eng yaxshi raqqosa» nominatsiyasi g'olibi bo'ldi. «Eng yaxshi sportchi» nomiga 25-umumta'lim maktabidan kelgan Bekzod Turonov sazovor bo'ldi.

Shu bilan birga, tumandagi 12-bolalar musiqqa maktabi tarbiyalanuvchilari goh madaniyat va sport ishlari boshqarmasi qoshidagi dasta konsert dasturi namoyish etadi. Zuhridin Meliqo'ziyev sport musobaqalari orqali kunda jajji chempionlarni kashf etmoqda. Otabel Begmatov rahbarlik qilayotgan oromgohda dam olish soatlari ana shunday rejalashtirilgan.

Tush vaqti. Hamma yoq jim-jit. Bolajonlar orom olishmoqda. Faqatgina Dilnavoz Hamroqulova, Mashhura Pirnazarova va Hulkanoy Mamajonova kabi jonkuyar tarbiyachilar postda. Halizamon shirintoylar oliy toifali shifokor Mirjalol Sodiqov ko'rigidan o'tishlari kerak.

Ha, aytmoqchi, esimdan chiqayozibdi, bugun kechki salqinda oromgohga birlashtirilgan ichki ishlar xodimlari ishtirokida «Balli, shovvolar!» tadbiri o'tkaziladi.

Nurbek QIDIRALIYEV



zish maqsadida turli xil ommaviy tadbirlar, ma'naviy-ma'rifiy ishlar tashkil etilmoqda, — deydi Shoira opa.

— Jumladan, shahrimizdagi Bobur nomidagi madaniyat va istirohat bog'ida o'tkazilgan ijodiy ishlar ko'rgazmasida markazimiz to'garak a'zolari o'z ijodiy ishlari bilan ishtirok etishdi.

Shuningdek, o'quvchilar o'rtasida sog'lom turmush tarzini shakllantirish, ularni turli illatlardan asrab-avaylash maqsadida, «OITS va giyohvandlikka qarshi birlashamiz» mavzusi-

LESSON 93

Dear children be active, learn those new words,
Today we rise our vocabulary base.
If you study these,
Do your summer holiday amazing with English!


COMPARE

- Tap ...
- Lighter ...
- Envelope ...
- Hook ...
- Candle ...
- Bucket ...
- Zip ...
- Padlock 9**
- Button ...
- Toothbrush ...



7 WORDS FOR 7 DAYS

Translate these words and find their synonyms below:




Wise, energetic, helpful, writer, noted, show, marvelous, lively, intelligent, useful, author, well-known, display, wonderful, active, thoughtful, beneficial, novelist, famous, exhibit, amazing.

Prepared by Dinora SHAKIROVA

CROSSWORD

Write these words in English:

- 1) kimyo
- 2) chegara
- 3) ob-havo
- 4) tarix
- 5) jasorat
- 6) bayroq
- 7) gerb
- 8) millat
- 9) sanoat
- 10) tibbiyot



Rahima NE'MATOVA,
the pupil of school №8 in Sho'rchi district, Surkhandarya region

YOU ARE THE SUN OF OUR HOUSE

She is very clever, kind,
With you our house light.
You are beautiful as flowers,
You are wise than all of us.



Dono AHMEDOVA


My gentle sweetie grandmother,
You teach us honesty and courteous.
We respect you and your words,
You are the sun of our house.

RIDDLES (Topishmoqlar)

It is green and yellow,
Grown on a stalk.
And you can eat it on the cobb,
What is it find yourself?



It helps protect our plants
by eating aphids,
She is real «Lady» and has
black spots.



TONGUE TWISTERS (Tez aytishlar)

The frog frightened from the fire.



She should shun the shining sun.



Bee buzzes beside bear's boat.



I dub my docile dog «Duke»



Kumush TURG'UNOVA,
the pupil of school №54 in Urtachirchik district, Tashkent region

IT IS EASY

Put indefinite articles rightly:

| | | | |
|----|--|----|--|
| an | | a | |
| a | | an | |

Gulruhbonu ASQAROVA,
the student of Uzbek State World Languages University


O'ZBEKISTON

Hamisha betakror, go'zalsan, o'lkam,
Porlar samo uzra sening quyoshing.
Har go'shang pokiza, bunchalar ko'rkam,
Vatanim, muborak navqiron yoshing.

Tarixing o'ylasam, dostonlar bitmas,
Shiroqday pahlavon o'g'lonlaring bor.
Ta'rifing so'ylasam so'zlar ham yetmas,
Kelajaging kulsin, bo'lsin barqaror.

Yovlar yo'llamagay qarorgohingga,
Vujudi otashday mardlaring bordur.
Yetarsan ko'zlagan manzilgohingga,
Boshingda humo bor, u senga yordur.

Dildora SHAYDULLAYEVA,
Surxondaryo viloyati,
Qumqo'rg'on tumanidagi
33-umumta'lim maktabi o'quvchisi



Bibisora OTAYEVA,
O'zbekiston Yozuvchilar
uyushmasi a'zosi

YURTIMIZ BOLALARI

O'qirlar to'rtga, beshga,
Mohirlar ezgu ishga.
O'xsharlar o'chmas naqshga,
Yurtimiz bolalari.

Tongda vaqtili turarlar,
Jismoniy mashq qilalar.
Sog'liq qadrin bilarlar,
Yurtimiz bolalari.

Boshga do'ppi kiyarlar,
Atlasda tovlanarlar.
Tinchlik kuyin kuylarlar,
Yurtimiz bolalari.

Tinchlikning bori uchun,
O'sarlar sog'lom, durkun.
Yayrarlar emin-erkin,
Yurtimiz bolalari.

Gul-g'unchadan andoza,
Ust-boshlari ozoda.
Chempion deb ovoza,
Yurtimiz bolalari.

Go'zal orzu, niyatli,
Nomusli, oriyatli.
Xushxulq-u tarbiyali,
Yurtimiz bolalari.

Yor erurlar san'atga,
Ilmga, ma'rifatga.
O'xsharlar donishmandga,
Yurtimiz bolalari.

Ta'lim olib maktabdan,
Qo'l uzmaslar kitobdan.
Kam emaslar hech kimdan,
Yurtimiz bolalari.

NIHOLIM

Nihol ekdim avaylab,
Qurimasin, so'lmasin.
Yerning bag'rida yayrab,
Barglari to'kilmasin.



Niholimga berdim nom,
Bo'lmagin aslo nimjon.
O'savergin sen doim,
Egilmagin hech qachon.

Sevinch ISOMIDDINOVA,
Navoiy viloyati,
Xatirchi tumanidagi
14-umumta'lim maktabi
o'quvchisi

ONAJONIM

Onam mehning
Taftin olgan men.
Onam qalbining
Yagonasi men.

Onam gul bo'lsa
Barglari menman.
Onam daraxt-u
Mevasi menman.

Onam oy bo'lsa
Yulduzi menman.
Onam tun bo'lsa
Qunduzi menman.

Onam quyosh-u
Nurlari menman.
Onam beqiyos
Deydigan menman.

Diyorbek HASANOV,
Samarqand viloyati,
Paxtachi tumanidagi
1-umumta'lim maktabi
o'quvchisi

BOBO QUYOSH

Ey, samoda charaqlagan bobo quyosh,
Qaydan olding shuncha sabr, metin bardosh?
Yonib turgan chehrang to'ssa bulut hamki,
Bobo quyosh, ketib qolma, bobo quyosh.

Sen bo'lmasang, bo'lmaydi
hech kunduzlaring,
Qara yerda biz
mehnatkash bolalaring.
So'nib qolmas osmoningda
yulduzlaring,
Bobo quyosh, kulib turgin,
bobo quyosh.

Sen borsanki, maysa-giyoh bo'yin cho'zar,
Nurlaringga teng kelolmas oltin-u zar.
Sen tufayli, qara, boriq qanday go'zal,
Bobo quyosh, charaqlab tur, bobo quyosh.

Nurmuhammad TO'XTAYEV,
Buxoro tumanidagi 1-umumta'lim
maktabi o'quvchisi

BIZNING OILA

Yashaymiz sho'x va shodon,
Baxtiyor o'g'il-qizlar.
Oyijonim oy bo'lsa,
Bizlar yorug' yulduzlar.

Oilada barchamiz,
Yashaymiz ahil-inoq.
Kulib turar chehrimiz,
Baxtimiz hamda quvnoq.

Nozima DAVLETOVA,
Xorazm viloyati,
Qo'shko'pir tumanidagi
1-umumta'lim maktabi
o'quvchisi

VATAN

MADHIN KUYLAGANDA YURT BOLASI...

Ohangrabo qo'shiq yangraydi. Musiqa ohanglariga hamohang kuylayotgan bolakayning san'atga bo'lgan mehr qonida bor. Boisi, uning bobosi Muhammadjon aka yoshligida mumtoz qo'shiqlarni katta-kichik davralarda ijro qilib yurardi.

Xayriyaxon aya suyuqli nabirasiga har kech alla aytgan kezlarda mitti go'dak allaga jo'r bo'lardi. Balki o'sha damlarda bolakayning murg'ak qalbiga qo'shiq sehri jo etgan bo'lsa, ajabmas.

Ulg'aygani sari unda qo'shiq aytishga bo'lgan ishtiyoq orta bordi. Ota-onasi O'tkirbek aka va Farida opaning musiqa san'atiga ixlosi baland. Ular Farg'ona viloyati, Dang'ara tumanidagi 39-umumta'lim maktabida rasm, chizmachilikdan dars berishyapti. Buvasi, otasining orzularini endilikda Arslonbek ro'yobga chiqarmoqda.

— Bu yil Qo'qon shahridagi 6-bolalar musiqa va san'at maktabining estrada-vokal, pianino yo'nalishini a'lo baholarda tamomladim, — deydi Arslonbek. — Endi «Temiryo'lchilar» san'at saroyida fortepiano, pianino bo'yicha mahoratimni oshirmoqchiman. Chodakdagi bolalar dam olish oromgohi

da yozgi ta'tilda o'zinning dilrabo qo'shiqlarim bilan tengdoshlarimni xushnud etmoqchiman. Qo'qonda bo'lib o'tadigan «Mustaqillik shukronasi» deb atalgan 90 kunlik sayl loyihasida ham yurtdoshlarim xizmatida bo'layotganimdan faxrlanaman.

Shu kungacha Arslonbek Hotamovning repertuaridagi qo'shiqlar soni 40 tadan ortdi. Ular orasida qardosh tillardagi qo'shiqlar ham talaygina.

Bu yil «Yagonasan, muqaddas Vatan!» respublika ko'rik-tanlovining viloyat bosqichida «Estrada xonandalik» yo'nalishi bo'yicha 1-darajali diplom bilan taqdirlandi. Bu muvaffaqiyat iste'dod egasining ruhiyatini ko'tarib, ishonchiga ishonch qo'shdi.

Yana bir qo'shiq yangraydi. Tomoshabin tinglash barobarida qalbida osoyishta yurtda yashash baxtidan faxrlanish tuyg'ularini tuyadi. Zero, Vatan madhi yuraklarda jo bo'lgan yurt bolasi orzulari, albatta, ijobat bo'lgay.

**Dunyolarni aylanib men, dunyolarni,
Topolmadim sen kabi bir go'zal chaman.
O'xshashing yo'q, bu dunyoda o'xshashing yo'q,
Uchratmadim hech qayerda senday Vatan.**

Nodira NAZAROVA



H. HAMIDULLAYEV olgan surat



JAVOHIR POLVON BO'LMOQCHI

Javohir Quvondiqov Navoiy viloyatining Xatirchi tumanidagi 17-umumta'lim maktabining 2-«G» sinf o'quvchisi. U o'quv yilini faqat «5» bahoga tamomladi.

Maktabga ilk qadam qo'ygandan boshlab, sport mashg'ulotlarini ham kanda qilmadi. Sarviniso Sobirova murabbiyligidagi to'garakka qatnashib, milliy kurash sirlarini o'zlashtirmoqda. 8 yoshli sportchimiz o'tgan yili tumanda bo'lib o'tgan musobaqada 23 kg vaznda 1-o'rinni qo'lga kiritib, viloyat bosqichida faxrli o'rinni egalladi. Shu yilning may oyida viloyatda bo'lib o'tgan xotira turnirida faol ishtirok etib, faxriy yorliq bilan taqdirlandi.

Javohir bobosi Quvondiq otaning taklifi bilan milliy kurash turini tanladi. Shundan bo'lsa kerak, bobo nabirasini har safar «O'zimning polvonim», deb erkalaydi. Yosh sportchi kelajakda O'zbekistonning mashhur polvoni bo'lib yetishsa, ajabmas!

Ulug'bek SAIDOV

Yulduz

Ortiqova yurtimizdagi kam sonli ayol sport jurnalistlaridan biri. U 2004-yildan beri «Sport» teleradiokanalida samarali faoliyat yuritib keladi. Biz Yulduz opangiz bilan uning jurnalistika sohasiga kirib kelishi, bugungi kundagi faoliyati haqida qisqacha suhbatlashdik.

KASBIM BILAN FAXRLANAMAN

- Bu kasbni tanlashingizga nima turtki bo'lgan?

- To'g'risini aytsam, bolaligimdan o'qib boshlagan jurnalist bo'lishni orzu qilardim. Keyinchalik bu niyat meni O'zbekiston Milliy universitetining jurnalistika fakulteti tomon yetakladi. Talabalik yillarimda ko'p kitob mutolaa qilganman.

lar edim. O'sha kezlarda mening zimmamga kam yoritilgan, mavzu yaxshi ochilmagan, ammo nihoyatda qiziqarli bo'lgan yo'nalishda ko'rsatuv tayyorlash vazifasi yuklatildi. Shundan so'ng badiiy gimnastika, sinxron suzish kabi estetik sport turlarini tahlil qiluvchi «Jozi-ba» ko'rsatuvini tashkil etdik. 2016-yil - «Sog'lom ona va bola yili» munosabati bilan dastur «Sportchi qizlar - O'zbekiston iftixori» nomi bilan efigra uzatilmoqda.

- Siz kabi ayol sport jurnalisti bo'lmoqchi bo'lgan yosh o'quvchi-qizlarga qanday tavsiyalar berasiz?

- Odatda sport jurnalistikasini erkaklar ishlaydigan soha sifatida e'tirof etishadi. Ammo xotin-qizlar sportini yoritish uchun, albatta, ayol jurnalistlarning mehnati, hissi zarur, deb o'ylayman.

Men sport jurnalisti bo'lishni maqsad qilgan qizlarga, eng av-

«Sog'lom ona va bola yili» munosabati bilan mahallalarda madaniy va ma'rifiy sport tadbirlari o'tkazish, milliy o'yinlarni yanada kengroq targ'ib etish, oilalar birdanligini ta'minlash, aholi o'rtasida sog'lom turmush tarzini targ'ib etish borasida talay ishlar olib borilmoqda.

Shu maqsadda yaqinda poytaxtimizdagi G'afur G'ulom nomli madaniyat va istirohat bog'ida «Otam, onam va men - sportchi oila» sport musobaqasining tuman bosqichi bo'lib o'tdi.

Muxbirimiz bu haqda «Mahalla» xayriya jamoat fondi Chilonzor tuman bo'linmasi bosh mutaxassisi Munira ORIPOVA bilan suhbatlashdi.

- Tumanimizdagi 51 ta mahallani guruhlariga ajratilgan holda «Otam, onam va men - sportchi oila» musobaqasini o'tkazgan edik. Unda g'olib chiqqan oltita - Al-Xorazmiy, «Xonto'pi», «Bahoriston», «3-Charxi-Kamolon», «Mevozor», «2-Qatortol» mahallalaridan kelgan sportchi oilalar bugun bu yerga taklif etildi. Ular sportning 30 metrga yugurish, arqonda sakrash, shashka o'ynash va armrestling kabi yo'nalishlarda o'zaro kuch sinashdilar.

Qizg'in o'tgan bellashuvlarda «3-Charxi-Kamolon» mahallasida istiqomat qiluvchi Maqsudxo'jayevlar oilasi

qisqacha so'zlab bersangiz...

- 2010-yilda «Sport» telekanalida bolalar sportiga oid ko'rsatuv tayyor-

valo, bu kasb juda mashaqqatli ekanini aytib o'tmoqchiman. Qolaversa, jurnalist xalqdan bir qadam oldinda yurishi, chuqur bilimli, salohiyatli, hozirjavob bo'li-

shi kerak. Buning uchun maktabdanoq barcha fanlardan a'lo baholarga o'qishi, ustozlarning maslahatlariga quloq tutishi zarur.

KUCHLILAR SARALANDI

Namanganda karting bo'yicha O'zbekiston kubogi musobaqalarining birinchi bosqichi bo'lib o'tdi.

O'zbekiston mudofaasiga ko'maklashuvchi «Vatanparvar» tashkiloti tomonidan tashkil etilgan musobaqada viloyatlar va Toshkent shahridan 15 jamoa qatnashdi. An'anaviy o'tkazib kelinayotgan mazkur musobaqa sportning ushbu turlarini targ'ib qilishda ham yaxshi samara bermoqda.

«Vatanparvar» tashkiloti Uchqo'rg'on tumani Kengashining o'quv sport-texnika klubi qoshidagi zamonaviy karting maydonida kechgan musobaqa yakunlariga ko'ra, barcha g'olib va sovrindorlar aniqlandi.

Umumjamoa hisobida «Bektemir» o'quv sport-texnika klubi jamoasi chempionat shohsupasining eng yuqori pog'onasiga ko'tarildi. 2-o'rinni Toshkent birlashgan texnika maktabi va 3-o'rinni Andijon viloyati jamoasi egalladi.

Shavkat KAZAKBAYEV



SPORTCHI OILALAR BELLASHUVI

1-o'rinni egalladi. «Mevozor» mahallasidan kelgan Zoirovlar oilasi 2-o'rin, «2-Qatortol» mahallasidan Akromovlar oilasi 3-o'ringa loyiq topildilar. Ularga esdalik sovg'alari, kubok, medallar taqdim etildi.

- Men Lola Maqsudxo'jayeva poytaxtimizdagi 178-umumta'lim maktabining 5-«J» sinf o'quvchisiman. Ota-onam, Quvondiqo'ja va Islom akam bilan bugungi musobaqada qatnashdik. 1-o'rinni qo'lga kiritganimizdan juda xursandmiz. Shahar bosqichida ham g'olib bo'lish uchun astoydil harakat qilamiz.

Musobaqada g'olib chiqqan oila a'zolari shahar bosqichiga yo'llanmani qo'lga kiritdilar.

Dilorom HOTAMOVA

- Hamkasblaringizga bayram tilaklaringiz...

- Yurtimizdagi barcha jurnalistlarni 27-iyun - Matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlari kuni munosabati bilan samimiy muborakbod etaman. Ularga ijodiy barkamollik, oilaviy baxt tilayman.

Sa'dullo TURSINOV suhbatlashdi



Ayniqsa, ustozlarimning ko'magi bilan sohaga doir adabiyotlar, qo'llanmalarni chuqur o'rgandim. To'g'risini aytsam, tanlagan kasbimdan faxrlanaman.

- Siz «Sport» telekanali orqali efigra uzatilayotgan «Jozi-ba» ko'rsatuvining muallifisiz. O'quvchilarimizga ushbu dasturning yaralish tarixi haqida



Shohrux ishqoqmas bola. Qachon qaramang, ko'chadan beri kelmaydi. Daraxtlarga chiqib olib, meva, barglarni to'kadi, shoxlarini sindiradi. Jonivorlarga ozor bermay qo'ymaydi. Bu gal ham xuddi shunday bo'ldi. Nimadir

SHOHRUXNING XATOSI



YOQUBBEK chizgan rasm


bo'ldi-yu, chiqqan daraxtida qush uyasini ko'rib qoldi. Do'stlari qush uyasini buzma, ular tabiatga foyda keltiradi, qurt-qumursqalarni yeb bitiradi, deyishsa ham u o'z bilgani-dan qolmadi.

Ko'chadan kir-chir holda uyga qaytgan Shohrux ayvonchada uxlab qoldi. Tushida daraxtlar, jonivorlar gapirayotgan emish. Daraxt shoxlari uni o'rtaga olib savalay boshlashibdi. Qushlar esa uni tinmay cho'qisharmish. Og'riqlarga chiday olmagan Shohrux baqirib yuboribdi. Uyg'onsa, tushi ekan. Yugurib ko'chaga chiqsa, bolalar soya-salqin joyda tinchgina o'ynab o'tirishibdi. U bolalardan qilgan ishlari uchun uzr so'rabdi. Birdan katta jyda daraxtning shoxiga qushlar uchib kelib, sayray boshlashibdi. Do'stlari unga mevalardan berishibdi. Mushugi oyoqlari ostiga kelib erkalana boshlabdi. Onasi farzandidagi bu o'zgarishni ko'rib, xursand bo'libdi.

Shahnoza ISMOILOVA,
Buxoro viloyati, Shofirkon tumanidagi
1-umumta'lim maktabi o'quvchisi

BO'SH O'TIRMAI, BOSH QOTIR!

NODIR ASARLAR TOPSHIRIG'I



Quyida mualliflari bayon etilgan asarlar shakldagi «noma» so'zi bilan tugallanadi. Ularning to'liq nomlarini topib, raqamli xonadan boshlab eniga yo'nalishida yozish bilan topshiriqni hal eting.

1. Mumtoz shoir Abulqosim Firdavsiy dostoni. 2. XIX asrda yashab ijod etgan o'zbek shoiri Mulla Qurbon Xironiy dostoni. 3. Shoh-shoirning nodir asari.

4. Temuriylar davrining mashhur tarixnavisi Sharafiddin Ali Yazdiy asari. 5. Kaykovus qalamiga mansub Sharqda keng tarqalgan axloqiy-ta'limiy mazmundagi asar. 6. Ma'rifatparvar shoir Muqimiy asari. 7. Sharqdagi birinchi tarixchi ayol Gulbadanbegim asari. 8. Xamsachilik asoschisi, shoir Nizomiy Ganjaviy dostoni.

Tuzuvchi:
Foziljon ORIPOV

U... JUDA MEHRIBON

Biz har kuni uni madh etib charchamaymiz. O'zimizni uning bag'rida tinch va osuda sezamiz. U bizning yaxshi kunlarimizga, quvnoq damlarimizga guvoh bo'lgan. Uning har bir qarichi biz uchun muqaddas, aziz.



Mana, oradan chorak asr o'tib, uning jamoli yanada go'zallashib, ko'rkamlashib bormoqda. Biz undagi har bir o'zgarishni, bunyodkorlikni o'z ko'zimiz bilan ko'rib, guvoh bo'lmoqdamiz. Maftunkor ko'chalarini kezarkanmiz, salqin shabadadan dillarimiz quv naydi. Unda mehmon bo'lgan har bir kishi bu yerga yana bir kelsam, mehmondo'st, ochiq yuz odamlarini yana bir ko'rsam, deydi.

U - bor ishonchini biz yoshlarga qaratgan. Uning umidi bizlardan. Shu bois ham bizlarni doim qo'llab-quvvatlaydi, orzularimiz ushalishiga qanot bo'ladi.

U - bizning ona Vatanimiz - O'zbekiston! Ishonchlar, orzular va istaklar mamlakati. Bu - bizning yurtimiz, sevimli go'shamiz, ona Vatanimiz!


Har birimizning taqdirimiz, baxtimiz u bilan bog'liq. Unga bo'lgan muhabbatimiz hech qachon so'nmaydi, u doim biz bilan birga, yuragimizda yashaydi. Bugun har birimizning dilimizda, tilimizda bir shior: «Go'zal va betakrorimsan, muqaddas Vatanim, jonim senga fido, O'ZBEKISTONIM!»

Odina SAHOBIDDIN qizi,
poytaxtimizning Yunusobod
tumanidagi 96-umumta'lim
maktabi bitiruvchisi

TOPISHMOQLAR

Ruchkadan balandroqman,
Pushti, sariq, qora, oqman.
Chizib, bo'yab yozaman,
Ko'proq yozsang, ozaman.
Tanimading hali ham,
Bu men - do'sting ...

A'lochining ulfati,
Jozibali surati.
U eng zo'r muallim,
Beradi bizga ta'lim.
Qani, do'stim, tezroq top,
To'ppa to'g'ri, bu...



Achchiqroqman ozgina,
Yoshlataman ko'zingni.
Tumovingni tuzatib,
Ko'rsataman o'zimni.
Qani, ayt-chi, Mirniyoz...
- Bumi, opajon...

Sonimiz toq
Qo'lingga boq.
Ahil-inoq...
O'yla tezroq.
- Topdim, o'rtoq
Beshta ...

E'ziza MUHAMMEDOVA,
poytaxtimizning Uchtepa tumanidagi
193-umumta'lim maktabi o'quvchisi

8

27-iyun 2016

Muassislar:

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi,
O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi,
«KAMOLOT» yoshlar ijtimoiy harakati
Markaziy Kengashi,
«SOG'LOM AVLOD UCHUN» hukumatga
qarashli bo'lmagan xalqaro xayriya fondi.

Bosh muharrir
Feruz AADILOVA

Gazeta O'zbekiston Matbuot
va axborot agentligida
0208-raqam bilan 2007-yil
2-fevralda ro'yxatdan o'tgan.

TAHRIR HAY'ATI:
Omonulla YUNUSOV,
Dilshod KENJAYEV,
Svetlana INOMOVA,
Bahodir G'ANIYEV,
Murtazo SULTONOV,
Zoir ISAJONOV,
Vahobjon RAJAPOV,
Zikrilla TESHABOYEV,
Feruz JALILOVA,
Feruz MATYOQUBOV
(mas'ul kotib)

Navbatchi muharrir
Nodira NAZAROVA
Rassom
Feruzbek KAMOL o'g'li
Sahifalovchi-dizayner
Shaxobiddin MAXMADIYEV

«O'zbekiston» NMIU bosma xonasida chop etildi.
Manzillimiz va bosmaxona manzili:
Toshkent shahri,
Navoiy ko'chasi, 30-uy.
Indeks: 100011.
Obuna indeksi: 198.
e-mail: info@tongyulduzi.uz
www.tongyulduzi.uz
Adadi - 47026
Buyurtma - S 6335

Tahririyatga kelgan barcha qo'lyozmalar tahrir qilinadi, mualliflarga qaytarilmaydi. Shakli A-3, 2 bosma taboq. Bahosi kelishilgan narxda. Gazeta haftaning dushanba kuni chop etiladi.
Topshirish vaqti - 18:00
Topshirildi - 18:00
Tel./faks:
(99871) 244-63-08